

Yuqorida keltirilgan olma mevalarini naviga qarab saqlanish muddatini oshirishga tansiya etishga 17 ta xitozan va uning hosilalari asosidagi preparatlardan barcha navlar uchun eng yuqori samaradorlikka xitozan (0,1 va 0,2)% li sirka kislotasi, xitozan (0,1 va 0,2)% li glisirizin kislotasi asosidagi preparatlar yuqori samaradorlikka erishildi.

Xulosa. Olingan natijalardan kelib chiqib olma mevalarini saqlash uchun fermer xo'jaliklari va saqlash omborlariga xitozan (0,1 va 0,2)% va sirka kislotasi (0,1 va 0,2% li) (1:1) nisbatda hamda xitozan (0,1; 0,2%) bilan glisirizin kislotasi (0,01%) (1:1) nisbatda tayyorlangan preparatlar ravsiya etildi.

ADABIYOTLAR:

1. Исмоилова Э. Т., Койшибаев М. Монилиозная гниль плодовых культур. // Защита и карантин растений. 1999 г. № 9., стр. 16-17.
2. Рашидова С.Р., Милушева Р.Ю. Хитин и хитозан (Bombyx mori). Синтез, свойства и применение. Ташкент. Изд "Фан" 2009. С.70.
3. Abdullayev F. T., Jamolova L. Yu., Xolmirzayev I. X. Olma navlarini saqlash muddatini oshirishda foydalanadigan preparatlar va optimal muhitni aniqlash. // "O'zbekiston agrar fani xabarnomasi". Jurnal. — Toshkent, 2022. №3 (3) 192-195 b.

UO'T: 632.4.01/8

BUG'DOYNING O'SISHI, RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGIGA BEGONA O'TLARNING TA'SIRI

K.X.Buxorov, dotsent,
M.T.Xonkeldiyeva, dotsent,
B.N.Ergashev, magistrant,
Toshkent davlat agrar universiteti.

Annotatsiya. Maqolada begona o'tlarning bo'g'doy hosili va uning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi keltirilgan bo'lib, begona o'tlar tuproqdan suvni va ozuqa moddalarni bo'g'doyga nisbatan ko'p o'zlashtirishi hisobiga bug'doy o'simligiga ozuqa moddalar kam yetib boradi. Bundan tashqari begona o'tlar har xil kasallik va zararkunandalarning oraliq xo'jayini bo'libgina qolmay, balki ular kasallik va zararkunandalarning tarqalishi hamda saqlanishida infeksiya manbai bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: bug'doyzor, begona o'tlar, kasallik, zararkunanda, infeksiya, bir yillik o'tlar, ko'p yillik o'tlar.

Аннотация. В статье описано вредное влияние сорняков на урожай пшеницы и ее качество. В связи с тем, что сорняки поглощают из почвы больше воды и питательных веществ, чем пшеница, до растения пшеницы доходит меньше питательных веществ. Кроме того, сорняки являются не только промежуточными хозяевами различных болезней и вредителей, но и служат источником инфекции при распространении и поддержании болезней и вредителей.

Ключевые слова: пшеничное поле, сорняки, болезни, вредители, заражение, однолетние травы, многолетние травы.

Abstract. The article describes the harmful effects of weeds on wheat yield and its quality. Because weeds absorb more water and nutrients from the soil than wheat, fewer nutrients reach the wheat plant. In addition, weeds are not only intermediate hosts of various diseases and pests, but also serve as a source of infection during the spread of diseases and pests.

Key words: wheat field, weeds, diseases, pests, infection, annual grasses, perennial grasses.

Kirish. Respublikamizdagi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning eng samarali yo'llaridan biri paxtachilik bilan bir qatorda donchilikni sug'oriladigan ekinzorlar hisobiga rivojlantirishdir. Belgilangan vazifalarni amalga oshirishning eng muhim yo'li bug'doyzorlarni begona o'tlardan, hasharotlardan va kasalliklardan muhofaza qilishdir.

Begona o'tlar dalalarda qishloq xo'jaligi ekinlari ichida, dalalar atrofida, ekin ekiladigan bo'sh yerlarda, ariqlar va yo'llar bo'ylarida, uylarga yaqin va boshqa har xil joylarda o'sadigan o'simliklar bo'lib, dunyoda ularning bir necha ming turi bor. Ulardan O'zbekistonning sug'oriladigan yerlarida 410 tadan ko'prog'i qayd etilgan bo'lib, bug'doyzorlarda 110 ta turi uchraydi.

Dalalarda begona o'tlarning tarqalishiga qarab keng tarqalgan, o'rtacha tarqalgan, kam tarqalgan va juda kam tarqalgan begona o'tlar guruhiga bo'linadi. Shu bilan birga, begona o'tlarning tarqalishi nafaqat har xil viloyat va tumanlarda, hatto alohida dalalarda ham kuchli farq qilishi mumkin, chunki begona o't turlarining tabiiy tarqalishiga, oldingi yilgi ekinlarni yetishtirishda qo'llanilgan agrotexnik chora tadbirlar hamda ekologik omillar ta'sir qiladi.

Begona o'tlar bilan samarali kurashish uchun ularning asosiy biologik xususiyatlarini, jumladan turlar tarkibi, vegetatsiya davri, uchrash darajasi, ko'payish usuli, jadal o'sish vaqtlarini bilish zarur. Kuzgi bug'doyzorlardagi begona o'tlarga qarshi agrotexnik, kimyoviy va biologik kurash choralarini ishlab chiqish Respublikada g'alla yetishtirish texnologiyasini yaratishga xizmat qiladi. Sug'oriladigan kuzgi bug'doyzorlardagi begona o't turlar tarkibini, uchrash darajasini kompleks o'rganish bug'doy ekinlarining hosildorligini oshirishda, donning sifati yaxshilanishida va ekinzorlardagi fitosanitariya holatining yaxshilanishida muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan eng dolzarb masala hisoblanadi [1;2].

G'alla yetishtirishning ilmiy asoslangan texnologiyasini ishlab chiqish uchun agrotexnik, kimyoviy, biologik kurash choralaridan kompleks rejali foydalanish, ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Tadqiqot materiallari va uslublari. Tadqiqotlar davomida quyidagi geobotanik uslublar va dasturlardan foydalanildi. Ekinzorlardagi begona o't turlar tarkibini o'rganish davomida Toshkent viloyatining g'alla chilikka ixtisoslashgan 35 dan ortiq xo'jaliklarning dalalarida 100 ta tafsilot yozilib 2000 dan ortiq gerbariy yig'ildi.

Begona o'tlarning turlar tarkibini aniqlashda quyidagi aniqlagichlardan foydalanildi: O'zbekiston floras, I—VI boblar (1941-1962 y.y.), O'rta Osiyo o'simliklari aniqlagichi, I—IX boblar (1980-1987 y.y.); S.K.Cherepanov, Sosudisto'e rasteniya SSSR (1981), A.Hamidov, M.Nabiev, T.Odilovlarning O'zbekiston o'simliklari aniqlagichi (1987). Begona o'tlarni yangi o'zbekcha nomlarini yozishda U.P.Pratov, T.Odilov (1995), uslubiy tavsiyalaridan foydalanildi.

Begona o'tlarning yarus hosil qilishi A.I.Malsev (1962) usulida aniqlandi. Begona o'tlarning o'sish yarusi: I yarus - begona o'tning bo'yi madaniy ekinnikidan baland; II yarus - begona o'tning bo'yi madaniy ekinniki bilan teng yoki yarmiga keladi; III yarus - begona o'tning bo'yi madaniy ekin bo'yining yarmidan past.

Dalaning begona o'tlar bilan qoplanish darajasini hisoblashda A.Jo'raqulov, V.Solovyev, K.Babayevlarning (1985) uslubiy qo'llanmasidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Bug'doyning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga begona o'tlarning ta'sirini o'rganish maqsadida Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanidagi fermer xo'jaliklari bug'doyzorlarida 2020-2022 yillar davomida kuzatish ishlarini olib borildi.

Tadqiqot olib borilgan fermer xo'jaliklari dalalarida agroteknika tadbirlar to'liq qo'llanilmagan xolatlarida begona o'tlar urug'i tuproqqa tushib, namlik, oziq moddalar yetarli bo'lganidan kuchli rivojlangan biomassa hosil qilishi kuzatildi. Begona o'tlarning ekin dalalarida gurkirab rivojlanishi, bug'doy o'simligining rivojlanishini to'sibgina qolmasdan, balki turli kasalliklarning tarqalish va infeksiyalarni saqlanish manbai bo'lib qolishi aniqlandi. Bug'doyzorlarda begona o'tlar sonining ortishiga sabab bo'luvchi omillardan biri shundaki, bug'doyzorlar o'rnida muntazam uch-to'rt yil davomida qayta-qayta bug'doy ekish xisoblanadi. Bug'doyzorlarda begona o'tlar sonini kamayishiga sabab bo'luvchi amallardan biri bu almashlab ekishdir. Tadqiqot olib borilgan bug'doy dalalarida 2020-2022 yillar oralig'ida almashlab ekishning bug'doyni o'sish va rivojlanishiga hamda bug'doyzorlardagi begona o'tlar miqdoriga ta'siri aniqlandi (1-jadval).

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, muntazam

uch yil davomida bitta dalada bug'doy yetishtirilgan dalalarda begona o'tlar soni 203 dona/m² bo'lib, bu ko'rsatkich bedazor o'rnida 114 dona/m², paxtazor o'rnida 154 dona/m² ni tashkil qildi. Bu esa bug'doyzorlarda bir necha yil davomida bug'doy ekish boshqa ekinzorlarga nisbatan begona o'tlar sonining ortishiga sabab bo'ldi. 2020 yilda erta muddatda ekilgan bug'doyzorlarda begona o'tlar soni 510 dona/m² bo'lishi kuzatildi. 2021 yilda bug'doy o'rniga bug'doy ekilgan dalalarda bug'doy rivojlanishini to'liq chegaralab qo'ygan ikkita turga mansub begona o'tlar keng tarqalganligi aniqlandi. Ular noyabr-may oylarida keng tarqalgan efemer begona o't *Lepyrodiclis holosteooides* turiga mansub bo'lib, bahor faslidagi ko'p yog'ingarchilik va bug'doy dalasiga berilgan mineral o'g'itlar uning tez rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Ikkinchi begona o't *Galium tricornis* Stokes turiga mansub bo'lib, lalmikor dalalar uchun xos bo'lgan efemer begona o't bug'doyning to'liq yotib qolishiga sabab bo'lishi aniqlandi. Bug'doyzorlarda keng tarqalgan bu begona o't vegetatsiya davrida to'liq urug' hosil qilib, tuproqda ko'p miqdorda urug'lar miqdorini ortishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, oraliq ekin turiga bog'liq ravishda begona o't turlar tarkibi va miqdorining o'zgarib borishi kuzgi bug'doy ko'chatlar soniga va bug'doy maysasining rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi (2-jadval).

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ko'chatlar sonining eng ko'p miqdori bedadan keyin ekilgan dalalarda 462 ta, g'o'zadan keyin 450 ta, bug'doydan keyin 440 tani tashkil qildi. Hosil yig'ishtirishdan oldin 10 ta o'simlik og'irligi o'lchab ko'rilganda, bu ko'rsatkich bedazor o'rniga ekilgan bug'doyda 310 g ni, bug'doydan keyin 263 g ni, g'o'zadan keyin 271 g ni tashkil qildi. Begona o'tlar keng tarqalgan dalalarda ular ko'pincha birinchi yarusni egallaganidan asosiy ekin bug'doyning rivojlanishi yaqqol sekinlashdi. Bedazor o'rniga bug'doy ekilgan dalalarda, bug'doy o'simligining balandligi 110 sm, g'o'zadan keyin 105 sm, bug'doydan keyin 104 sm ni tashkil qildi. Shunday qilib, begona o'tlar keng tarqalgan dalalarda ko'chatlar soni kamayib qolmasdan, uning poyasining balandligi ham pasayib bug'doyning nozik va nimjon o'sishi natijasida og'irligi ham kamayib ketishi kuzatildi.

1-jadval.

Bug'doyzorlardagi begona o'tlar miqdori (dona/m²) ga almashlab ekishning ta'siri

№	Ekin dalasini turi	Gullash davri	Boshqoq hosil qilish davri	Sut pishishi davri	Donning to'liq pishish davri	O'rtacha
1	G'o'za o'rniga bug'doy	120	134	176	187	154
2	Bug'doy o'rniga bug'doy	173	198	214	227	203
3	Beda o'rniga bug'doy	101	113	117	125	114
	NSR _{0,5}				2,08 %	

2-jadval

Ekin dalasining bug'doy ko'chatlar soni va rivojlanishiga ta'siri

№	Ko'rsatkichlar	Ekin dalasining turi		
		G'o'za dalasi o'rnida	Kuzgi bug'doy dalasi o'rnida	Beda dalasi o'rnida
1	Ko'chatlar soni, dona/m ²	450	440	462
2	Hosilni yig'ishtirib olishdan oldin 10 ta o'simlik og'irligi, g	271	263	310
3	O'simlikning balandligi, sm	105	104	110

Xulosa. Xulosa qilib aytganda kuzgi va bahorgi vegetatsiya davrida ungan begona o'tlarga qarshi kurashni ikki muddatda kuzda va bahorda o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Ya'ni

kuzda paxtazor o'rnidagi begona o'tlarga qarshi kurashilsa, bahorda bug'doyzorlardagi begona o'tlarga qarshi kurash olib boriladi.

ADABIYOTLAR:

1. Buxorov K., Belolipov I.V., Sheraliev A. Bug'doyzor begona o'tlari. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2003. №10. 22-23 b.
2. Buxorov K., Raximov U., Aliqulov A., Baratov S. Sug'oriladigan bug'doyzorlardagi begona o'tlarni bug'doyning Fusarioz kasalligini rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri. // Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini. Maxsus son (2). T.: 2022. 213-217 b.
3. Журакулов А., Соловёв В.П., Бобоаев К. Методика учёта степени засорённости посевов хлопчатника и других культур в системе севооборота. Из-во. "Фан". Ташкент. 1985.
4. Hamidov A., Nabiev M., Odilov T. O'zbekiston o'simliklari aniqlagichi. "O'qituvchi", T.: 1987. 327-b.
5. Pratov U.P., Odilov T. O'zbekiston yuksak o'simliklari oilalarining zamonaviy tizimi va o'zbekcha nomlari. Metodik tavsiya, Toshkent. 1995. 40 b.

УЎТ: 633.51/11+631.5

БЕГОНА ЎТЛАРГА ҚАРШИ АГРОТЕХНИК ВА КИМЁВИЙ КУРАШ ЧОРАЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ

Бахромов Шукурилло Саъдуллаевич,

ПСУЕАИТИ Андижон илмий тажриба станцияси илмий ишлар бўйича директор ўринбосари,

Жанибеков Дилёрбек Абдуманнобович,

Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти қ.х.ф.ф.д. (PhD) катта ўқитувчи.

Аннотация. Олиб борган тадқиқот тажриба майдонида мавжуд бегона ўтларга қарши курашда олиб борилган агротехник ва кимёвий кураш чораларни уйғунлашган таъсири тўғрисида маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: гўза, гербицид, бир йиллик бегона ўт, кўп йиллик бегона ўт агротехник кураш, кимёвий кураш.

Аннотация. Проведенные исследования дают информацию о комплексном действии агротехнических и химических мер борьбы с существующими на опытной площадке сорняками.

Ключевые слова: хлопок, гербицид, однолетние сорняки, многолетние сорняки, агротехническая борьба, химическая борьба.

Abstract. The conducted studies provide information on the complex effect of agrotechnical and chemical measures to combat the weeds existing on the experimental site.

Keywords: cotton, herbicide, annual weeds, perennial weeds, agricultural control, chemical control.

Кириш. Дунё қишлоқ хўжалигида ҳозирги кунда бегона ўтларга қарши курашишда агротехник ва кимёвий кураш чораларини уйғунлашган ҳолда такомиллаштириш натижасида экинлардан юқори ва таннарҳи паст ҳосил етиштириш билан бирга, меҳнат харажатлари ҳамда ишчи кучини камайтириш, ЁММ харажатларини қисқартиришга эришилмоқда. Шу билан бирга бегона ўтларга қарши уйғунлашган ҳолда курашишда ерга ишлов бериш агротехнология элементларини такомиллаштириш билан бирга, янги гербицидларни қўллаш, уларнинг мақбул меъёри ва муддатларини аниқлаш олимлар олдидаги долзарб масалалардан бири бўлиб қолмоқда.

Қишлоқ хўжалиги экинларида орасида учрайдиган бегона ўтлар таъсирида кузги ғалланинг 20-40 %, пахтанинг 15-20 %, сабзавот ва бошқа экинларнинг 10-20% ҳосилдорлиги йўқотилиши, Ф.Хасанованинг [3] маълумотларида бугунги кунда Республикаимизнинг суғориладиган майдонларида бегона ўтларнинг 75 тури мавжуд бўлиб, шунинг ҳисобига тупроқдаги намликни тез бўғланиши ҳамда мавжуд озик моддаларга шерик бўлиши натижасида ҳосилдорлик ва сифат кўрсаткичларини кескин пасайишига олиб келаётганлиги таъкидланган.

Ф.Хасанова, Д.Мавлянов, Х.Маруфханов, Д.Жанибековлар [2] Тошкент вилоятининг меҳаник таркиби оғир қумоқли, типик бўз тупроқларида олиб борган тадқиқотларида, кузги буғдойдан бўшаган майдонларни ёзда ерни ҳайдаш олдида

енгил суғорилиб, кўкариб чиққан бегона ўтларга қарши Химглифос гербициди 4,0 л/га меъёрада қўлланилганда, кўп йиллик бегона ўтларни 85-90 % гача, бир йиллик бегона ўтларни эса 100 % гача йўқолиши, келгуси йили парваришланадиган ғўзадан юқори ва сифатли ҳосил олишган.

Тадқиқот материаллари ва услуби. Тадқиқотда кузатув ва таҳлиллар ЎзПТИДа қабул қилинган "Дала тажрибаларини ўтказиш" услубномаси асосида, тажриба вариантларида тупроқнинг агрофизикавий, агрокимёвий ва микробиологик хоссаларини ўрганиш "Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах" услубий қўлланмалари бўйича, олинган маълумотларнинг аниқлиги ва ишончлилиги умумқабул қилинган Б.А.Доспеховнинг "Методика полевого опыта" услуби ёрдамида математик-статистик таҳлил Microsoft Excel компьютер дастурида ишлаб чиқилган.

Натижалар ва мунозара. Ғўза парваришlash учун ҳам (2019 й.) кузда 35-40 см чуқурликда шудгорлаш олиб борилиб, баҳорда бороналаш, молалаш ўтказилгандан кейин чигитлар экилган 1-вариантда (назорат) бир йиллик бегона ўтлар сони 26,0 дона/м², кўп йиллик бегона ўтлар сони 17,0 дона/м² ни ташкил этгани кузатилди. Барча экинларни парваришlashда доимий 30-35 см чуқурликда хайдов олиб борилган 2-3-вариантларда бегона ўтларга қарши чигит экиш билан бирга Стомп 33 % э.к. гербициди 1,5 л/га меъёрада